

## KOGNITIV TILSHUNOSLIKDAGI ASOSIY TUSHUNCHALAR

**Sobirova Shohsanam**

UrDU Tarjima nazariyasi va amaliyoti yoʻnalishi 3-bosqich talabasi

### ANNOTATSIYA

Kognitiv tilshunoslik zamonaviy tilshunoslikning yangi va jadal rivojlanayotgan tarmogʻidir. Kognitiv tilshunoslik inson tafakkuri va tili oʻrtasidagi bogʻliqlik masalalarini tadqiq etadi. Mazkur maqolada kognitiv tilshunoslik va uning asosiy tushunchalari haqida muhokama qilinadi.

**Kalit soʻzlar:** Kognitiv tilshunoslik, konsept, ssenariy, skript, freym, gestalt, prototip.

Kognitiv tilshunoslik atamasining mazmuni inglizcha **cognitive-bilishga oid** soʻzi bilan bogʻliq. Konsept kognitiv tilshunoslikdagi asosiy tushunchalardan biridir. Konseptning shakllanishi individual obraz tugʻilishidan boshlanib, lisoniy birlikning paydo boʻlishi bilan tugaydi. Konsept mental tuzilma boʻlib, u turli tarkibdagi va koʻrinishdagi bilimlar kvanti yoki umumlashmasidir.

Kognitiv tilshunoslik tilni umumiy kognitiv mexanizm sifatida oʻrganuvchi sohadir. V.Z. Demyankov fikriga koʻra, unda til tizimining axborotni qayta ishlashdagi roli nutq yaratilishi va idrok etilishi nuqtai nazaridan oʻrganiladi. Bunda nutq yaratuvchi va uni idrok etuvchi subektlar-soʻzlovchi va tinglovchiga axborotni qayta ishlovchi tizim sifatida qaraladi [3, 17]. Olimning fikricha, tilshunoslik sohasida faoliyat yurituvchi har bir tilshunos kognitiv tilshunoslik bilan shugʻullanmoqchi boʻlsa, ushbu sohaning yuzaga kelishiga asos boʻlgan psixologiya, nevrologiya, gnesologiya, sotsiologiya, sunʼiy intellekt kabi fanlardan ham xabardor boʻlishi talab etiladi.

Kognitiv tilshunoslik kognitiv faoliyat tushunchasi bilan uzviy bogʻliqdir. Kognitiv faoliyat insonning biror narsa yoki voqelikni idrok etishini amalga oshiruvchi tafakkur jarayonidir.

Professor A. Mamatov tomonidan eʼlon qilingan “Tilga kognitiv yondashuvning mohiyati nimada?” nomli maqolasida kognitiv tilshunoslikning vazifasi va unga oid tushunchalarning lingvistik mohiyati haqida fikr yuritgan.

Jahon tilshunosligida N.Xomskiy, J.Lakkof, V.N. Teliya, Z.D. Popova, Ch. Filommer, R. Langaker kabi tilshunos olimlar kognitiv tilshunoslikning asosi boʻlgan prototip, ssenariy, freym, konseptuallashtirish, koteqoriyalashtirish, konseptosfera kabi terminlar borasida fikr mulohazalar bildirishgan.

Kognitiv tilshunoslik til va tafakkur masalalari bilan shug'ullanuvchi zamonaviy tilshunoslikning yangi yo'nalishi sifatida XX asrning oxirlarida shakllandi.

Til va tafakkur munosabati muammolarining uzoq yillardan buyon davom etib kelayotgan muhokamasi turli metodologik xulosa va tavsiyalarni yuzaga keltirdi.

Tashqi dunyoning ongdagi in'ikosi paydo bo'lishida til asosiy rol o'ynashiga alohida urg'u bergan olimlar (Sepir, Hoyjer, Hokket, Budagov, Panfilov va boshqalar) ta'kidicha, lisoniy struktura (qurilma) insonning voqelikni idrok etish qobiliyati va tajribasining shakllanishini ta'minlab, ijtimoiy ongga ta'sir o'tkazadi hamda shu yo'sinda insonning dunyoqarashi, voqelikni anglash qobiliyatini shakllantiradi.

Voqelikning miyada aks etishi faqatgina nutqiy tafakkur harakati natijasida yuzaga kelmasligini isbotlash maqsadida B.A. Serebrennikov tafakkurning lisoniy va nolisoniy turlarini farqlashni taklif etganligini eslaymiz. Bular quyidagilar:

a) aniq tafakkur – aniq, konkret muhitda yuzaga keladigan voqelikning umumlashtirilgan obrazi (aksi);

b) ramziy tafakkur – xotirada mavjud bo'lgan butun bir voqelik yoki predmet-hodisalarni alohida bir muhit-sharoitga bog'liq bo'lgan holda qayta eslash;

v) amaliy tafakkur – bevosita maqsadli harakatlar bajarilishi bilan bog'liq fikr;

g) lingvokreativ yoki lisonni shakllantiruvchi tafakkur, ya'ni bu turdagi tafakkur harakatlari bevosita til tizimi zahiralari bilan bog'liq;

d) nolisoniy tushuncha tafakkuri - (bu turdagi tafakkurning alohida ajratilishi, voqelik haqidagi tushunchaning paydo bo'lishi nutqiy harakatdan oldingi bosqichga oidligi bilan bog'liqdir) [2, 104].

Kognitiv tilshunoslikda konsept tushunchasi bilan birga **skript, ssenariy, freym, gestalt, prototip** kabi tushunchalar ham mavjud va ular kognitiv tilshunoslikning asosini tashkil qiladi.

**Ssenariy** biror bir tipik hodisaga xos o'zaro bog'liq faktlarning ularning uzviyligini aks ettiruvchi namunaviy shakl misolida yoritilishidir. Ushbu namunaviy struktura ma'lum voqelik bo'lagiga oid harakatlar, holatlar uzviy munosabatlaridan iborat. Ssenariy (scenarios) tushunchasini kognitologiyaga oid tadqiqotlar doirasiga birinchilardan bo'lib sun'iy intellekt bo'yicha mutaxassislar R.Shenk va R.Abelsonlar kiritishgan va ularning talqinicha, ushbu tushuncha voqealar ketma-ketligini, ularning o'zaro bog'lanishini ko'rsatish uchun zarur.

**Skript** (inglizcha script so'zining tub ma'nosi "qo'lyozma, yozuv") namunaviy konseptual tuzilmalarning bir turi sifatida qaralib, u inson tafakkurida aks etayotgan borliqdagi voqelarning me'yoriy ketma-ketligi namunasi. Skript tarkibiga kiruvchi voqealarning sabab-oqibat munosabatlari asosida, tizimiy bog'lanishi, ketma-ketligi hamda ushbu voqealarning stereotip takrorlanuvchanlik xususiyati uning asosiy tavsifiy belgisi sifatida qaraladi [4].

**Frey**m. Insonning har qanday axborotni egallashi bevosita uning xotirasida saqlanayotgan oldingi tajribasi va bilimi doirasi miqyosida amalga oshadi. Har bir inson xotirasida ma'lum miqdordagi bilimlar strukturasi zahirasi saqlanadi va aynan shu zahira axborotni qabul qilib idrok etish vositasi rolini o'taydi. Boshqacha aytganda, har bir shaxs ongida "freymlar to'ri to'plami" mavjudkim, ushbu to'plam bilim va idrok faoliyatini ma'lum ko'rinishdagi "andoza"lar asosida amalga oshishini ta'minlaydi.

"Frey"m" tushunchasini tilshunoslikka birinchilardan bo'lib Ch.Filmor tatbiq etdi.

**Gestalt** nemis tilidan olingan bo'lib, Gestalt ya'ni obraz, struktura, yaxlit shakl degan ma'nolarni bildiradi. Gestalt tushunchasi ruhiy tuzilmalar, obrazlarning o'ziga xos yaxlitlikni ta'minlovchi belgi va xususiyatlarning umumlashmasini anglatadi. Gestalt nazariyasining asoschilaridan biri Maks Vertxaymer (1880 -1943) ushbu muammoni quyidagicha bayon qilgan edi: „... mavjud bog'liklar asosida yuzaga keladigan yaxlitlik, umumiylik avval alohida bo'laklar ko'rinishidagi elementlarning keyingi jamlanishidan iborat bo'lmasdan, balki ushbu yaxlitlikning ichki strukturaviy qonuniyatlari bilan belgilanadi“ [1, 6].

**Prototip.** Prototip kategoriyasi ob'ektlarning xususiyatlariga nisbatan ajratiladi. Prototip tafakkur jarayonida hosil bo'ladigan mental tuzilmalardan biri sifatida lisoniy faoliyat va ijodga oid hodisalarning tub mohiyatini anglash imkonini beradi. Binobarin, gap qurilishining kognitiv-semantik asoslarini o'rganishga harakat qilgan J.Lakoff gap tarkibida yuzaga keladigan prototip munosabatlarni aniqlash muhimligini ta'kidlaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, kognitiv tilshunoslik sohalararo muloqotning mahsulidir. So'ngi yillarda kognitiv tilshunoslik doirasidagi tadqiqotlar soni keskin oshib bormoqda. Kognitiv tilshunoslik, kognitologiyaning boshqa sohalaridan farqli holda, inson tomonidan til tizimini va ushbu tizimni harakatga keltiruvchi omillarni o'zlashtirishi va ulardan foydalanish qoidalarini qay yo'sinda tartibga solinishi kabi masalalar bilan shug'ullanadi. Kognitivist – tilshunos lisoniy hodisalarning tafakkur faoliyatidagi o'rni, bajaradigan vazifalari bilan qiziqadi. Lekin bu qiziqish oddiy emas. U (kognitivist) lisoniy va tafakkur faoliyatlari munosabatlarining yuzaga keltiruvchi sabablarni qidiradi va bu sabablar oqibati bo'lgan muloqot matnlari – lisoniy tuzilmalarni tarkiban va mazmunan anglashga, tahlil qilishga harakat qiladi. Demak, kognitiv tilshunoslik asosan inson lisoniy faoliyatini sabab va oqibat bog'liqligida tadqiq etuvchi, "tushuntiruvchi" fan sohasidir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Вертгеймер М. Продуктивное мышление. М.: Прогресс, 1987. -336 с.
2. Серебренников Б.А. О материалистическом подходе к явлениям языка. М.:
3. Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода // Вопросы языкознания, 1994, №4. –с. 17-33.
4. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Jizzah: Sangzor, 2006. 92 b.  
Наука. 1983. -319 с.